EKSTREMIZM TUSHUNCHASI TO‘G‘RISIDA

Xamdamov Abduvali Axmedovich
Yu.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi
ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
tezkor-qidiruv faoliyati kafedrasi professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.23970742

Annotasiya: Maqolada «ekstremizm» tushunchasining mavjud ta’riflari, shuningdek, ushbu hodisaning universal ta’rifini ishlab chiqishda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: ekstremizm, ekstremizm tushunchasi, ekstremizm muammosi

Annotation: The article provides an analysis of the existing definitions of the concept of 'extremism', as well as the problems that arise in developing a universal definition of this phenomenon.
Key words: extremism, the concept of extremism, the problem of extremism

Аннотация: В статье дается анализ существующих определений понятий «экстремизма», а также проблем, возникающих при выработке универсального определения данного явления.
Ключевые слова: экстремизм, понятие экстремизма, проблема экстремизма

Fuqarolar manfaatlariga, jamoat xavfsizligiga va siyosiy tizimidan qat’i nazar, davlatlar barqarorligiga tahdid solayotgan ekstremizm doimiy e’tiborni talab qiladigan dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ekstremizm — jahon hamjamiyati xavfsizligiga eng xavfli tahdidlardan biri bo‘lib, u ham sodir etilayotgan jinoyatlar, ham umuminsoniy axloq, huquq va qadriyatlarning buzilishi orqali butun jamiyat uchun xavf tug‘diradi. Bu ijtimoiy hayotning muayyan sohalarida yuzaga kelgan ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishning o‘ziga xos shaklidir. Bu alohida shaxslar yoki guruhlar tomonidan davlatda mavjud bo‘lgan va umum tomonidan e’tirof etilgan ijtimoiy norma hamda qoidalarni radikal tarzda inkor etish shaklidir".

"Ekstremizmni turli xil ijtimoiy yoki mulkiy mavqega, milliy va diniy mansublikka, kasbiy va ma’lumot darajasiga, turli yosh va jins guruhlariga va hokazolarga mansub insonlar amalga oshirishi mumkin. Tarix shuni ko‘rsatadiki, ekstremizm chekka (ekstremal) qarashlar va yondashuvlarning ifodasi sifatida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borish xususiyatiga ega. Oxirgi vaqtlarda ekstremizm o‘zining jinoiy maqsadlarida ilm-fan yutuqlaridan, dindan va qonunchilikning mukammal emasligidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, ko‘zlangan maqsadlari va namoyon bo‘lish shakllariga ko‘ra tobora keng ko‘lamli hamda ko‘p qiyofali tus olmoqda"[1].

[1] *https://mo-petergof.spb.ru/city/news/projects/24256.*

Ekstremistik faoliyatning oqibatlari ijtimoiy hayotning barcha asosiy sohalariga — siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga daxl qiladi. Ekstremizm — chekka qarashlar va harakatlarga sodiqlikdir. Ekstremizmni ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, siyosiy institutlarning deformatsiyasi (tuzilmaviy buzilishi), aholining salmoqli qismi hayot darajasining keskin pasayishi, ijtimoiy istiqbollarning yomonlashishi, jamiyatda tushkunlik, ijtimoiy va shaxsiy o‘zini namoyon qila olmaslik kayfiyati, kelajakdan qo‘rqish, hukumat tomonidan muxolifat va o‘zgacha fikrlashning bostirilishi, shaxsning qonuniy tashabbuslarining cheklanishi, milliy zulm, yetakchilar va siyosiy partiyalarning ambitsiyalari hamda siyosiy jarayon rahbarlarining ekstremal siyosiy faoliyat vositalariga tayanishi keltirib chiqaradi.

Turli mamlakatlarda va turli davrlarda "ekstremizm" tushunchasiga ko‘plab huquqiy va ilmiy ta’riflar berilgan, biroq bugungi kunda dunyoda "ekstremizm" tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas.

Shuni ta’kidlash joizki, ekstremizm namoyon bo‘lish shakllarining ko‘pligi va murakkabligi tufayli ushbu qat’iy atamaga xolis ifoda berish juda mushkul. Shuningdek, bunga ekstremizmning tarixiy o‘zgaruvchanligi, aniq chegaralarning yo‘qligi, ushbu fenomenning mohiyatini tushunish bo‘yicha asosli pozitsiyalarning yetishmasligi hamda bu hodisaga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy nuqtai nazardan, hatto uning ijobiy tomonlarini topishgacha bo‘lgan turli xil ta’riflar berilgani sabab bo‘lmoqda. Nazariy jihatdan olganda, ekstremizmni ta’riflashdagi birinchi muammo muayyan jamiyatda nima norma (me’yor), nima tegishli xulq-atvor modeli deb qabul qilinishi va nima undan og‘ish, ya’ni deviatsiya deb hisoblanishiga bog‘liqdir. Bunday holatda, demokratik siyosiy tuzumga ega mamlakatlarda avtoritar rejim o‘rnatish tarafdori bo‘lgan shaxslar yoki guruhlar ekstremistlar deb hisoblansa, avtoritar va totalitar jamiyatlarda esa — buning aksi kuzatiladi. Har bir tomon o‘z siyosatini yagona to‘g‘ri va oqilona, shu bois demokratik deb hisoblaydi, garchi tashqaridan qaraganda ularning harakatlari yaqqol millatchilik xarakteriga ega bo‘lsa ham.

Ekstremizmni ta’riflashning birinchisidan kelib chiqadigan ikkinchi nazariy muammosi bu davlatlarning milliy qonunchiligidir. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining yuridik amaliyoti va jinoyat huquqida «ekstremizm» atamasi kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi, uning o‘rniga «nafrat zaminida sodir etilgan jinoyatlar» (prestuplyaniya na pochve nenavisti) iborasi ishlatiladi. AQShning 1776-yildagi Konstitutsiyasiga kiritilgan 1-tuzatishga muvofiq, unda «Kongress so‘z yoki matbuot erkinligini cheklovchi... hech qanday qonunlar qabul qilmasligi kerak...» deb belgilab qo‘yilgan»[2].

Ekstremizm (lotinchadan "extremus" — "chekka", "ashaddiy") hodisa sifatida chuqur qadimgi davrlarga borib taqaladi. Biroq "ekstremizm" atamasining o‘zi ko‘p asrlik tarixga ega emas va ko‘plab ma’lumotnoma adabiyotlari mualliflari tomonidan asosan siyosat sohasida chekka qarashlar va choralarga moyillikni ifodalash uchun ishlatiladi. "Ekstremizm" tushunchasi birinchi marta amerikalik filolog J.E. Vuster lug‘atida (1846-yil) paydo bo‘lgan bo‘lib, unda "ekstremist" atamasiga "chekka doktrina va amaliyotlar tarafdori" deb ta’rif berilgan. Ekstremizm nazariyasining rivojlangan ilmiy muammo sifatida shakllanish davrining o‘ziga xos boshlanish nuqtasi esa taniqli amerikalik sotsiolog Daniel Bell tahriri ostida 1955-yilda nashr etilgan "Yangi Amerika o‘ng qanoti" ("The New American Right") jamoaviy

[2] *Конституция США | Аннотированная Конституция | Congress.gov |Библиотека Конгресса США https://constitution.congress.gov/constitution.*

monografiyasi bo‘lishi mumkin. Ushbu to‘plamda (u 1963-yilda sezilarli darajada qayta ishlanib, "Radikal o‘ng qanot" nomi bilan qayta nashr etilgan) shunchaki siyosiy spektrning muayyan qismidagi tashkilotlar va ularning mafkuraviy qarashlari tavsifi emas, balki ekstremizmni umumiy hodisa sifatida o‘rganish uchun metodologik yo‘nalishlar taklif qilingan[3]. Ilmiy adabiyotlarda "ekstremizm" atamasi turli jihatlardan ochib beriladi, biroq bu ko‘p qirrali hodisaning ta’rifiga nisbatan kompleks yondashuv mavjud emas. Bu esa uning mohiyatini tushunishni qiyinlashtiradi, nafaqat ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish, balki ushbu munosabatlarni madaniy tarzda tahlil qila oladigan metodologik vositani tadqiq etish imkoniyatini ham bermaydi.

Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida keskinlashib borayotgan to‘qnashuvlar va nizolar, terrorizm va ekstremizm tahdidlari bizdan doimo hushyor bo‘lishni talab qiladi. Ekstremizmni ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida tahlil qilish tarixi nisbatan yosh bo‘lsa-da, ekstremizmning o‘zi azaldan ma’lum va ko‘plab mamlakatlarda o‘zini ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon etgan. Yoshlar ekstremizmini ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida tadqiq etish kompleks va fanlararo yondashuvni, keng ko‘lamli va turli xil manbalarga murojaat qilishni talab qiladi. Ekstremizm tahliliga bag‘ishlangan mavjud mahalliy va xorijiy adabiyotlar ancha kengdir. Olimlarning ekstremizm muammolariga bo‘lgan katta tadqiqotchilik qiziqishiga qaramay, bugungi kunda ushbu fenomen yetarli darajada o‘rganilgan deb aytib bo‘lmaydi. Bu tezis, jumladan, mahalliy fanda ekstremizm mohiyati to‘g‘risida yagona tushuncha va uning xususiyatlariga nisbatan konsensus (o‘zaro kelishuv) shakllanmaganligi bilan ham tasdiqlanadi. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar davomida xorijiy olimlarning ishlaridan empirik ma’lumotlar va alohida baholashlar manbasi sifatida foydalanilsa-da, ekstremizm tadqiqotchilari ko‘pincha xorijiy nazariy ishlanmalarga, shu jumladan, "ekstremizm" tushunchasining ta’rifiga doir qarashlarga yetarlicha e’tibor qaratmayotganliklari diqqatni tortadi.

Shubhasiz, ekstremizm — bu tinch aholiga nisbatan sodir etilgan qonunbuzarlik harakatlari bo‘lib, u jamiyat a’zolari uchun zo‘ravonlik va hayotga tahdid bilan ham hamrohlik qilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu qilmishning asosiy sababi uning siyosiy xarakterga egaligidir.

Shu munosabat bilan, ekstremizmning oldini olish va unga barham berishga qaratilgan eng samarali choralarni belgilash, ularni moliyalashtirish manbalari va kanallarini yo‘q qilish, ushbu sohada milliy va xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish choralarini takomillashtirish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYASI»[4] hamda ushbu Milliy strategiyani amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Ta’kidlash joizki, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi

[3]*Batafsil;* Экстремизм как цивилизационный вызов: коллективная монография / науч. ред. д-р филос. наук, проф. *В.Ш. Сабиров*; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин).
– Новосибирск: НГАСУ (Сибстрин), 2012. –С. 117-118.

[4]*Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2021-y., 06/21/6255/0638-son; 08.11.2023-y., 06/23/188/0835-son; 13.01.2025-y., 06/25/1/0022-son; 11.09.2025-y., 06/25/164/0821-son*

normativ-huquqiy bazani takomillashtirish Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yana bir jihatni alohida ta’kidlash joizki, huquqiy demokratik davlat barpo etish qonunchilikni xalqaro-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shubhasiz, respublikamizda ko‘p yillardan buyon sud-huquq tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish jarayoni ketayotgani diqqatni tortadi, uning mohiyati va mazmuni esa — ijtimoiy va davlat hayotini yanada demokratik yangilashdan iboratdir. Albatta, har qanday qonunchilik hujjati dogma (o‘zgarmas qoida) emas va u ijtimoiy hayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga muvofiq takomillashtirib borilishi kerak. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, fandagi tushunchalar apparatini aniq belgilash ham nazariya, ham amaliy faoliyat uchun prinsipial ahamiyatga egadir.

"Ekstremizm" tushunchasi xalqaro huquq nazariyasidagi asosiy, boshlang‘ich tushunchalar sirasiga kiradi. Binobarin, "ekstremizm" tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berish — qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi va asosliligini ta’minlashning zaruriy shartidir.

Ma’lumki, qonunchilik bilan ta’minlash sifati ko‘p jihatdan ta’riflarning aniqligi bilan belgilanadi. Huquqiy adabiyotlarda ekstremizmga huquqiy ta’rif berish eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu hodisaning juda keng tarqalgani va alohida dolzarbligiga qaramay, zamonaviy yuridik fan ekstremizmni ta’riflashda yagona yondashuvni ishlab chiqmagan. Ta’kidlash joizki, ekstremizm — jamiyat rivojlanishining ichki va tashqi ziddiyatlari keltirib chiqargan murakkab ijtimoiy-siyosiy va jinoiy hodisadir. "Ekstremizm" tushunchasi ko‘p qirralidir. "Ekstremizm" tushunchasi lotincha "extremus" — "chekka", "haddan tashqari" degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, jamiyat hayotining turli sohalarida radikal (chekka) qarashlar va/yoki harakat usullariga sodiqlikni anglatadi. Shubhasiz, norma va qadriyatlarni rad etish hamda inkor etishda namoyon bo‘ladigan, murosaga kelishni qat’iyan rad etadigan va o‘z g‘oyalarini qo‘lda qurol bilan himoya qilishga tayyorlikni ifodalaydigan ekstremizm shakllari "ekstremizm" atamasining o‘zi adabiy va huquqiy muomalada paydo bo‘lishidan ancha oldin yuzaga kelgani diqqatni tortadi".

Shuni ta’kidlash joizki, ayrim olimlar ekstremizmni «terrorizm va zo‘ravonlik» deb talqin qilsalar, boshqalari uni «chekka qarashlar va harakatlarga sodiqlikka asoslangan, ijtimoiy normalarni radikal tarzda inkor etish usuli» deb hisoblaydilar. M.E. Islamov qayd etishicha, ekstremizm «...o‘zining keng ma’nosida o‘z prinsiplarini majburan yoyishni, muxoliflarga nisbatan murosasizlikni va ularni zo‘ravonlik bilan bostirishni ko‘zda tutuvchi mafkura sifatida ta’riflanadi»[5], S.N. Fridinskiy esa ekstremizmga o‘z mualliflik ta’rifini taklif etadi: «...ekstremizm deganda, umumiy siyosiy, mafkuraviy, milliy, diniy, irqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy qarashlar va ishonchlar asosida birlashgan vakillarning ekstremistik turtkilar ta’sirida ushbu qarashlarni zo‘ravonlik bilan yoyish hamda o‘zlari yoqlayotgan qarashlardan farq qiluvchi boshqa qarashlarni tag-tomiri bilan yo‘q qilishga qaratilgan qonunbuzarlik harakatlarini sodir etuvchi ijtimoiy tizimli hodisani tushunish kerak» [6].

---

[5]*Ismailov I.* Diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi hamda profilaktikasi. Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik / Mualliflar jamoasi. – T., 2015. – B. 68–69;

[6]*Хлебушкин А.Г.* Преступный экстремизм: понятие, виды, проблемы криминализации. автореф. дис. … канд. юр. наук. Саратов, 2007. С. 7; *Ubaydullaev Sh. M.* Ekstremizm va

Zamonaviy tadqiqotchilar «ekstremizm» tushunchasining ta’rifi bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlarini bildirmoqdalar, xususan, R.O. Nigmatov ekstremizmga yanada lo‘nda va batafsil ta’rif beradi: «ekstremizm — bu inson yoki bir guruh odamlarning siyosat, din, falsafa, fan, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi chekka qarashlari yoki faoliyatidir»[7].

Katta afsuski, qonunchilikda bunday ulkan va murakkab ta’riflarning mavjudligi chalkashliklarga olib keladi. «Ekstremizm» tushunchasini ta’riflashdagi yondashuvlarning barcha xilma-xilligiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O‘RQ-489-sonli «Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunida berilgan tushuncha biz uchun yuridik jihatdan ahamiyatlidir. O‘zbekiston Respublikasining «Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuni 3-moddasiga muvofiq: «ekstremizm — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rlik bilan egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasidir»[8].

Ekstremizm kabi hodisaga qarshi kurash qonunchilik darajasida ham imkon qadar samarali bo‘lishi, ekstremizmga qarshi kurashni tartibga soluvchi va buning uchun javobgarlikni belgilovchi qonunchilikni yaxshilashi hamda chuqurlashtirishi lozim.

Ekstremizm o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab, dinamik va ko‘p qirrali hodisa ekanligini hisobga olib, ekstremizm — quyidagilarda ifodalanadigan harakatlar majmuidir, deb xulosa qilish mumkin:

1. Jamoat birlashmasi, tashkilot, harakat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning jamiyat hamda demokratik davlatning konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo‘lgan, chekka qarashlarni o‘z ichiga olgan o‘z g‘oyalari, doktrinalari va ta’limotlarini yoyishga qaratilgan faoliyati;

2. Davlatning ma’qul kelmaydigan davlat tuzumi, ichki va tashqi siyosati, milliy, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy dasturlariga qarshi kurashish uchun biron-bir jamoat birlashmasi, tashkilot, harakatni tuzish yoki mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning shu maqsaddagi harakatlari;

3. Davlat tomonidan o‘rnatilgan huquqiy taqiqlarni buzuvchi, zo‘ravonlik yoki boshqa radikal usullarni qo‘llash bilan birga kechadigan mafkura va ta’limotlarni tarqatish.

Shuni ta’kidlash kerakki, ekstremizm fenomeni tabiatining murakkabligi va ziddiyatliligi sababli, uni tushunish muammosini hal qilish g‘oyat mushkuldir. Ushbu hodisaning mohiyatini

---

terrorizmning davlat va jamiyat rivojiga ta’siri hamda uning oldini olishning ahamiyati. Huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya, amaliyot va qonunchilik tahlili: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2022 yil 31 mart) / Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. *Q.R. Abdurasulova*. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 478 b.

[7]*Nigmatov R.O.* Ekstremizining nazariy tushunchalari va uning turlari. // Terrorizm va ekstremizm karshi kurashish: muammo va yechimlar: Ilmiy maqolalar to‘plami / Mas’ul muharir: yu.f.d. prof. *A.A. Xamdamov*.–T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022,– S.345.

[8]*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 03/18/489/1593-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son.*

huquq nuqtai nazaridan ochib berishga qaratilgan ko‘plab urinishlar huquqshunoslar o‘rtasida bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Shunday qilib, qonunlarda, ilmiy ishlarda va o‘quv nashrlarida uchraydigan tushunchalarning nazariy tahlili hamda tushunchalarni shakllantirishning mantiqiy qoidalaridan foydalangan holda, ekstremizmga quyidagi ta’rifni berishga jazm etamiz: «ekstremizm — bu alohida shaxslar yoki bir guruh odamlarning siyosat, din, falsafa, fan, sport, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi chekka qarashlar yoki noodatiy harakatlarga sodiqligiga asoslangan faoliyatidir». Bizningcha, biz tomondan berilgan ushbu ta’rif yanada to‘liq hamda tugallangan bo‘lib, u bir xilda talqin qilinishini rag‘batlantiradi, shuningdek, qonunchilikning u yoki bu masalalarini ko‘rib chiqishda yagona yondashuvni shakllantiradi.